

“SUN’IY INTELLECT VA ONG MUAMMOSI: FALSAFIY TAHLIL”

Rashidova Gulsanam

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyot yo’nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola sun’iy intellekt (SI) va ong muammosining falsafiy jihatlarini haqida fikr yuritilgan. Sun’iy intellekt va inson ongining mohiyati, ularning o‘zaro bog‘liqligi va farqlari masalasiga chuqur yondashilgan. Maqolada sun’iy intellektning haqiqiy ongga ega bo‘lishi ehtimoli, axloqiy va ilmiy jihatlarini muhokama qilinadi. Shu bilan birga, ong tushunchasining turli falsafiy yondashuvlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, ong muammosi, falsafiy munosabat, subyektiv omillar, texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ilmiy falsafiy muammolar.

“Artificial intelligence and the problem of consciousness: A philosophical analysis”

Annotation . This article analyzes the philosophical aspects of the problem of artificial intelligence (AI) and consciousness. The essence of artificial intelligence and human consciousness, their interrelationships and differences are deeply approached. The article discusses the possibility of artificial intelligence having true consciousness, its ethical and scientific aspects. At the same time, various philosophical approaches to the concept of consciousness are considered.

Keywords: Artificial intelligence, problem of consciousness, philosophical attitude, subjective factors, rapid development of technologies, scientific and philosophical problems

“Искусственный интеллект и проблема сознания: философский анализ»

Аннотация . В данной статье анализируются философские аспекты искусственного интеллекта (ИИ) и проблемы сознания. Глубоко рассматривается природа искусственного интеллекта и человеческого сознания, их взаимозависимость и различия. В статье рассматривается возможность наличия у искусственного интеллекта реального сознания, этического и научного аспектов. При этом рассматриваются различные философские подходы к понятию сознания.

ключевые слова: искусственный интеллект, проблема сознания, философская установка, субъективные факторы, бурное развитие технологий, научно-философские проблемы.

Asrlar davomida ong tabiatini tushunish falsafa va boshqa ilm-fanning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Ammo bugungi kunga kelib sun’iy intellekt

texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson ongida falsafiy va ilmiy muammolarni yangidan kòrib chiqishga majbur qilmoqda. Sun'iy intellekt bu muammoni yanada murakkablashtirib ong va aqlga oid bahslarni qayta jonlantirdi.

Ong tushunchasi va sun'iy intellekt.

Ong – insonning o‘zligini anglash, tafakkur qilish, his-tuyg‘ularni boshdan kechirish va atrof-muhitni idrok etish qobiliyatidir. U falsafa, psixologiya, neyrofanlar va sun'iy intellekt tadqiqotlarida markaziy tushuncha sifatida qaraladi. An'anaviy falsafada esa ongni materialistik va dualistik qarashlar orqali tushuntirishga harakat qilishgan. Ya'ni materializm nuqtai nazaridan ong faqatgina miyaning murakkab neyron jarayonlari mahsuli sifatida qaralsa, dualizm ongning jismoniy dunyodan mustaqil narsa ekanligini ilgari suradi.

Ongning muhim jihatlaridan biri subyektiv tajriba yoki klaviyalar bo'lib bu insonning duyoni qanday his qilishi bioan bog'liq. Masalan izil rangni ko'rish yoki musiqa eshitish inson ongining subyektiv tajribalaridir.

Sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi bilan ikkita asosiy falsafiy pozitsiya shakllanadi: ya'ni

1. Mehanisdik yondashuv. Bunga ko'ra ong faqat murakkab hisoblash jarayoni sifatida tushuniladi. Ushbu nuqtai nazarga ko'ra sun'iy intellekt vaqt o'tishi bilan haqiqiy ongga ega bo'lishi mumkin.

2. Holistik yondashuv. Bu tamoyilga ko'ra ong faqat texnik tizimlar bilan ifodalanmaydigan, bundan tashqari, individual tajriba, his-tuyg‘ular va intuitsiyaga bog'liq bo'lgan murakkab noyob hodisa.

Sun'iy intellekt faqat oldindan berilgan algoritmlar asosida ish bajaradi ammo inson miyyasi faoliyatini miyasi model qilish orqali yangi bilimlarni shakllantiradi.

Sun'iy intellekt – bu inson aqliga xos vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan dasturiy tizimlar majmuasidir. U ma'lumotlarni qayta ishlash, o'z-o'zini o'rganish, mantiqiy xulosa chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega. Sun'iy intellekt odamga xos bo'lgan aqliy faoliyatni simulyatsiya qiluvchi tizim sifatida qaraladi. Biroq, sun'iy intelekt haqiqiy ongga ega bo'lishi mumkinmi yoki yo'qmi, bu hamon ochiq savol bo'lib qolmoqda. Sun'iy intellekt orqali hosil qilingan bilim va tajriba inson tajribasi bilan qanchalik uyg'un kelishi mumkinligi masalasi falsafiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Sun'iy intellekt va ong muammosi.

Sun'iy intellekt sohasida ikki asosiy yondashuv mavjud: kuchli sun'iy intellekt va zaif sun'iy intellekt. Zaif sun'iy intellekt bu maxsus muammolarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan dasturiy tizim bo'lsa, kuchli sun'iy intellekt esa mustaqil fikrlash, o'zini anglash va ongli tajribaga ega bo'lishi lozim bo'lgan model sifatida tasavvur qilinadi.

Sun'iy intellekt tizimlarining tobora murakkablashib borishi bilan ushbu masalalar nafaqat nazariy balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib bormoqda. Zamonaviy neyrotarmoqlar va katta til modellari ong va tushunishning ba'zi xususiyatlarini namoyon qilayotganday ko'rinsa-da ko'pchilik mutaxassislar hali bu tizimlar haqiqiy ongga ega emas, deb hisoblashadi.

Falsafa sun'iy intellektning haqiqiy ongga ega bo'lishi mumkinmi yoki yo'qmidegan masalani hal qilish uchun bir necha yondashuvlarni taklif qiladi:

*Materialistik yondashuv – ong faqat fizik jarayonlarga asoslangan bo'lib agar sun'iy tizimlar inson miyasi kabi murakkab bo'lsa ular ham ong hosil qilishi mumkin.

*Dualistik yondashuv – ong materiyadan mustaqil bo'lib faqat inson yoki boshqa biologic mavjudodlarga xos xususiyat. Sun'iy intellekt hech qachon haqiqiy ongga ega bo'la olmaydi.

* Funksionalizm – ongning mohiyati uning fizik tuzilishida emas balki qanday funksiyani bajarishida. Agar sun'iy intellekt inson miyasi kabi ishlay olsa u ham ongga ega bo'lishi mumkin.

Falsafiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, sun'iy intellekt haqiqiy ongga ega bo'la oladimi yoki yo'qmi, degan savolni hal qilish qiyin. Dasturiy vositalar inson tafakkurini modellashtirishi mumkin, ammo ular haqiqiy anglash va subyektiv tajribaga ega bo'ladimi? Bu masala J. Syorlning "Xitoy xonasi" tajribasi orqali ham bahslarga sabab bo'lgan. Unga ko'ra, dastur sintaksis (belgilarni qayta ishlash) darajasida ishlaydi, lekin semantika (mazmunni tushunish) bilan bog'liq bo'lmaydi. Ya'ni, sun'i intellekt tilni mantiqiy manipulyatsiya qilishi mumkin, ammo u tilning ma'nosini tushunmaydi.

Yana bir tajribalardan biri bu TURING testi bo'lib, u sun'iy intellektning insoniy tafakkurga yaqinligini tekshirish vositasi sifatida taklif qilingan. Ya'ni agar inson sun'iy intellekt bilan yozishmalar davomida uni haqiqiy odam deb o'ylasa, demak, sun'iy intellekt ongga ega bo'lishi mumkin.

Bunga qo'shimcha ravishta funksionalistlar sun'iy intellekt inson tafakkurini modellashtira olsa va mustaqil tajriba orttira olsa u haqiqiy ongga ega bo'lishi mumkin.

Ong muammosining eng murakkab jihatlaridan biri kvaliya tushunchasidir. Kvaliya – bu insonning subyektiv tajribalarini ifodalovchi holatlardir, misol uchun, qizil rangni ko'rish yoki og'riq his qilish. Sun'iy intellektning ongli mavjudotga aylanishi uchun u kvaliyalarni boshdan kechirishi kerakmi yoki yo'qmi – bu masala hanuz ochiq.

Ong tabiatini tushunish va uni sun'iy tizimlarda qayta yaratish imkoniyati haqidagi savollar faqat texnologik emas balki falsafiy psixologik va hatto teologik masalalardir.

Sun'iy intellekt va ong muammosi kontekstida teologik masalalar ham ko'tariladi. chunki ba'zi diniy qarashlarda ong va ruh ilohiy ne'mat sifatida qaraladi va sun'iy tizimlarda

bunday xususiyatlar bo'lishi mumkinligi haqidagi masalalar diniy nuqtai nazardan ham muhokama qilinadi.

Ba'zi tadqiqotchilar sun'iy intellektning kvaliya tajribasiga ega bo'lishi imkonsiz, deb hisoblashadi, chunki u faqat algoritmik jarayonlar orqali ishlaydi va ongli tajribaga ega bo'lish uchun zarur bo'lgan biologik tuzilmalardan mahrum. Boshqa nazariyalarga ko'ra, agar sun'iy intellekt yetarlicha murakkab va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lsa, u ongga yaqin xususiyatlarni hosil qilishi mumkin.

Falsafada bilish jarayoni (epistemologiya) sun'iy intellekt orqali qay darajada amalga oshirilishi mumkinligi muhokama qilinadi. Sun'iy intellekt bilimga ega bo'lishi mumkinmi yoki u faqat ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositami?

Ba'zi faylasuflar sun'iy intellektning bilim olish jarayoni insonniki bilan farq qilinishini ta'kidlaydi. Chunki u hissiy tajribaga ega emas. Ammo boshqalar agar sun'iy intellekt inson ongi kabi bilish jarayonlarini bajara olsa u haqiqiy bilishga ega bo'lishi mumkinligini aytadi.

Sun'iy intellektning rivojlanishi insoniyat kelajagiga qanday ta'sir qiladi?

Optimistik qarash – Sun'iy intellekt insoniyatga yordam berib, fan, tibbiyot va texnologiya sohalarida inqilob yasaydi.

Pessimistik qarash – Sun'iy intellekt inson nazorati ostidan chiqib, insoniyat uchun tahdid tug'dirishi mumkin (masalan, avtomatlashtirilgan qurollar yoki iqtisodiy ishsizlik).

Ray Kurtsveyl kabi futuristlar "texnologik singulyarlik" g'oyasini ilgari suradi, ya'ni Sun'iy intellekt inson ongi darajasidan o'tib ketib, mustaqil tafakkurga ega bo'ladi. Bu insoniyatga foyda yoki xavf olib kelishi mumkin.

Falsafiy va ilmiy doiralarda sun'iy intellekt rivojlanishi haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni insoniyatning eng katta yutug'i deb bilsa, boshqalar uni nazoratsiz qoldirish xavf tug'dirishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Nick Bostrom

"Sun'iy superintellekt insoniyat uchun eng katta xavf va imkoniyatdir."

Bostrom "Superintellekt: Yo'llar, xavflar, strategiyalar" (2014) kitobida Sun'iy intellekt rivojlanishi insoniyatni yo'q qilish yoki mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishi mumkinligini muhokama qilgan.

Hubert Dreyfus

"Sun'iy intellekt hech qachon insoniy tushuncha va sezgiga ega bo'la olmaydi."

Dreyfus Sun'iy intellektning inson ongi bilan tenglasha olmasligini tanqid qilib, u faqat oldindan dasturlashtirilgan qoidalarga asoslanganligini ta'kidlagan.

Elon Musk

"Sun'iy intellekt insoniyatning eng katta xavfi bo'lishi mumkin."

Musk Sun'iy intellekt rivojlanishini nazoratsiz qoldirish xavfli ekanligini va unga axloqiy cheklovlar kiritish zarurligini ilgari surgan.

Sun'iy intellekt va ong muammosi inson tafakkurining cheklovlari va imkoniyatlarini tushunish uchun muhim falsafiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ongning mohiyati va sun'iy tizimlarda uning mavjud yoki mavjud emasligi haqidagi savollar faqat texnologik rivojlanish bilan emas, balki falsafiy va axloqiy yondashuvlar orqali ham o'rganilishi kerak. Bu esa sun'iy intellekt va inson tafakkuri o'rtasidagi chegaralarni yanada aniqroq belgilash imkonini beradi. Ong va sun'iy intellekt muammosini hal qilish, kelajakdagi texnologiyalar, axloqiy me'yorlar va insoniyatning o'zini anglash jarayonida muhim o'rin egallashi aniq. Shu sababli, bu mavzu nafaqat ilmiy-texnologik, balki falsafiy va jamiyatshunoslik nuqtai nazaridan ham chuqur o'rganilishi zarur.

Falsafiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt ma'lumotlarni qayta ishlashi va murakkab qarorlar qabul qilishi mumkin, ammo insoniy tushuncha, subyektiv tajriba va ongning chuqur mohiyatini yaratish qobiliyati hali aniqlanmagan. J. Syorlning "Xitoy xonasi" argumenti sun'iy intellektning ongga ega emasligini ta'kidlaydi, A. Turingning testi esa mashinalarning insoniy tafakkurga yaqinlasha olishini tekshirishga harakat qiladi.

Sun'iy intellektning rivojlanishi bilan uni axloqiy nazorat qilish muhim masalaga aylanmoqda. N. Bostrom va E. Musk kabi tadqiqotchilar sun'iy intellektning nazoratsiz rivojlanishi insoniyat uchun xavf tug'dirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Boshqa tomondan, R. Kurtsveyl singari futuristlar sun'iy intellekt insoniyat bilan uyg'unlashib, uning intellektual imkoniyatlarini kengaytirishini bashorat qilmoqda.

Shunday qilib, sun'iy intellekt kelajakda inson ongiga yaqinlasha oladimi yoki yo'qmi, bu savol falsafiy, ilmiy va texnologik jihatdan tadqiq etilishi kerak. Rivojlanayotgan sun'iy intellekt tizimlari ongni to'liq yaratmasa ham, insoniyat hayotining turli jabhalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turing, A. M. (1950). Computing Machinery and Intelligence. *Mind*, 59(236), 433–460.
2. Searle, J. (1980). Minds, Brains, and Programs. *Behavioral and Brain Sciences*, 3(3), 417–457.
3. Bostrom, N. (2014). *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. Oxford University Press.
4. Kurzweil, R. (2005). *The Singularity Is Near: When Humans Transcend Biology*. Viking Press.

5. Dreyfus, H. L. (1972). What Computers Can't Do: The Limits of Artificial Intelligence. Harper & Row.
6. Chalmers, D. J. (1996). The Conscious Mind: In Search of a Fundamental Theory. Oxford University Press.
7. Russell, S., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson.
8. Dennett, D. C. (1991). Consciousness Explained. Little, Brown and Co.
9. Tegmark, M. (2017). Life 3.0: Being Human in the Age of Artificial Intelligence. Knopf.
10. Goertzel, B. (2007). Artificial General Intelligence. Springer.
11. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." Journal of Survey in Fisheries Sciences 10.1S (2023): 5000-5006.
12. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
13. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go‘zal Aralovna Ochilova, and Sitora Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." World of Scientific news in Science 1.3 (2023): 15-28.
14. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." Global Scientific Review 13 (2023): 7-10.
15. Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o‘g‘li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘." TADQIQOTLAR. UZ 40.4 (2024): 135-139..
16. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..
17. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
18. Azamova S. EKOLOGIK TA‘LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.